

# PEDAGOGIK MAHORAT

**5(1)**  
**2025**



# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**5-son (2025-yil, may)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2025**

|                                                                            |                                                                                                                                               |     |
|----------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>MURTAZAYEVA Nasiba Komiljonovna</b>                                     | Bo‘lajak mutaxassislarning kreativ kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish pedagogik muammo sifatida                    | 103 |
| <b>MALLAYEV Alisher Rajabaliyevich, RAJABALIYEVA Iroda Alisherovna</b>     | Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sohasida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish                 | 107 |
| <b>NAZAROVA Gulnora Norbekovna</b>                                         | Gender stereotiplarning qadriyatlarda namoyon bo‘lishi                                                                                        | 114 |
| <b>NORQULOV Usmon Elomonovich</b>                                          | Texnika ixtisosliklarida oliy ta’lim jarayonini tashkil etishning nazariy psixologik-pedagogik aspektlari                                     | 121 |
| <b>OMAROVA Gavxar Sadikovna</b>                                            | Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishning metodik imkoniyatlari          | 125 |
| <b>OTEPBERGENOV Jetkerbay Sakbergenovich</b>                               | Kredit-modulli ta’lim doirasida talabalarning kognitiv qobiliyatlarini tashxislash                                                            | 129 |
| <b>PRIMOV Tulkin Islamovich</b>                                            | Loyihalashtirish asosida modellashtirishni o‘rgatish mazmuni va metodikasini takomillashtirish                                                | 134 |
| <b>QARSHIBOYEVA Dilfuza Burliyevna</b>                                     | O‘smirlar guruhida agressiv xulq-atvorni bartaraf qilishning psixologik xususiyatlari                                                         | 139 |
| <b>QURBONOVA Shoirra Narzullayevna, SAYFIDDINOVA Muxlisa Sayfiddinovna</b> | Texnologiya fanini o‘tishda integratsiyadan foydalanish imkoniyatlari                                                                         | 145 |
| <b>FAYZULLAYEVA Gulchexra Sharipboyevna, RASHIDOVA Dildora Mansur qizi</b> | Fanlararo o‘qitish uyg‘unligini ta’minlash vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari | 150 |
| <b>RAXIMOVA E’tibor Rustamovna</b>                                         | Jahon psixologiya fanida muloqotdagi qiyinchilik masalasi tadqiqi                                                                             | 154 |
| <b>RAXIMOVA Madina Xasanovna</b>                                           | Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari                                                      | 159 |
| <b>РУСТАМОВА Шахзода Маруповна</b>                                         | Ўспирин кизлар ва уларнинг оналари ижтимоий тасаввурларини ўрганиш натижалари                                                                 | 164 |
| <b>SADULLAYEVA Zarnigor To‘lqinjonovna</b>                                 | Talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonining innovatsion yondashuvlari                                                                   | 169 |
| <b>SAFOYEV Hasan Aminovich</b>                                             | Sportchilarning stress ostida qaror qabul qilish qobiliyatlari, psixologik mexanizmlar va moslashuv strategiyalari                            | 173 |
| <b>SHODMONOVA Zilola Bozorovna</b>                                         | Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarni ijtimoiy-reabilitatsion faoliyatga tayyorlash yo‘llari                                              | 178 |
| <b>SHOKIROVA Manzuraxon Bobirxon qizi</b>                                  | Barqarorlikka erishish tamoyillari ekologik ta’limning asosi                                                                                  | 183 |
| <b>SIDIQOVA Yulduz Sobirovna</b>                                           | Zamonaviy paradigmlar yangi innovatsion yondashuv sifatida                                                                                    | 188 |
| <b>SODIQOVA Dilnavoz Qambaraliyevna</b>                                    | Pedagogik texnologiyalar va yangi innovatsion g‘oyalar                                                                                        | 192 |
| <b>SULTANOV Shoxruh Rahmon o‘g‘li</b>                                      | Ijtimoiy faollikni rivojlantirish bosqichlari va pedagogik-psixologik xususiyatlari                                                           | 196 |
| <b>SUNNATOVA O‘g‘iloy Kamardin qizi</b>                                    | STEAM yondashuvi va hozirgi kunda ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni                                                                   | 200 |
| <b>TILAVOV Muxtor Hasan o‘g‘li</b>                                         | Psixologik xizmatni samarali tashkil etishning konseptual asoslari                                                                            | 205 |
| <b>TURDIYEVA Nigora Saidovna</b>                                           | Etnopedagogik kompetensiya bo‘lajak o‘qituvchilarning etnik madaniy                                                                           | 209 |

E.E.Chorshanbiyevning dissertasion tadqiqot ishida “Psixologik-pedagogik tadqiqot ishlarida tanlovning ikki yo‘nalishi – gorizonttal va vertikal yo‘nalishi ajratib ko‘rsatiladi. Gorizonttal yo‘nalish ta‘lim olish faoliyatini tashkil etish mazmuni va shaklini tanlashni shart qilib qo‘yadi. Vertikal yo‘nalish esa ta‘lim olishning optimal darajasini tanlashni ta‘minlaydi. Umuman olganda, tanlov barcha faoliyatga maqsadli yo‘nalganlikni ta‘minlovchi xatti-harakatlar hisoblanadi” deb keltirilgan [8].

**Xulosa.** O‘qitish nazariyasi bo‘yicha shunday fikr keltirilgan: oliy ta‘limda psixologiyaning vazifalari uchta asosiy yo‘nalishda taqsimlanadi: talabalarni o‘quv-ilmiy tayyorlash; mutaxassisning yuksak intellektual shaxsini tarbiyalash; mutaxassisni kasbiy tayyorlash. O‘quv jarayonining vazifalarini faqat o‘quv-ilmiy ma‘lumotlarni berish, o‘qitishning tegishli usul, shakl va vositalaridan foydalanish orqali hal qilib bo‘lmaydi. Talabalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish, ularning aqliy qobiliyatlarini barcha o‘quv vazifalarini yanada samarali hal qilish uchun maqsadli safarbar etish psixologik asoslashni talab qiladi. O‘quv jarayonida mutaxassisning intellektual shakllanishi tafakkurni ikki tomonining: obyektiv-mantiqiy va subyektiv-psixologik o‘zaro bog‘liqligi asosida sodir bo‘ladi. Zamonaviy fan va ayniqsa texnika rivojlanishi sharoitida texnika bilan ishlaydigan mutaxassisni shakllantirish uchun muhandislik psixologiyasiga murojaat qilish lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Романов А.П. Рыночная экономика и менеджмент: основы идеологии: Учебное пособие / А.П. Романов. - Тамбов: Изд.-во ТГТУ, 1997.-126с.
2. Иноземцева Ж.В. Методика организации информационно-технологической подготовки экономиста-менеджера: Дис...канд. пед. наук, Тамбов, 1999,- 219с.
3. Астафьева Н.Э. Теоретические основы дидактической системы информатизации педагогической деятельности преподавателей профессиональных учебных заведений: Дис... д.-ра. пед. наук: 13.00.01/Н.Э. Астафьева - СПб., 1997.
4. Архангельский С.И. Лекции по теории обучения в высшей школе/С.И. Архангельский - М.: Высш, шк., 1974.-384с.
5. Nazarov O.O. Texnika ixtisosliklari talabalarida Gidravlika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Qarshi. 2024. 160-b.
6. Ильина Т.А. Педагогика: Курс лекций/Т.А. Ильина.- М.: Просвещение,-496 с.
7. Бухарова Г.Д. Теоретико-методологические основы обучения решению задач студентов вуза: Дис... д.-ра пед. наук: 13.00.01/ Г.Д. Бухарова.- Екатеринбург, 1997.-276с.
8. Nazarov A.A. “Talabalarni umukasbiy fanlar asosida innovasion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Toshkent. 2020. 142-b.

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI  
SHAKLLANTIRISHDA TABAQALASHGAN YONDASHUVDAN FOYDALANISHNING  
METODIK IMKONIYATLARI**

**Omarova Gavxar Sadikovna,**

*Buxoro davlat universiteti*

*“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi*

*g.s.omarova@buxdu.uz*

*Ushu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishning Mehnat huquqi fani misolida tahlil qilingan bo‘lib, huquqiy salohiyatga ega, ichki intizomga rioya qiluvchi, o‘z mehnat faoliyatida yuksalishining huquqiy asosidan xabardor kadr, shuningdek huquqiy nigilizmni bartaraf eta olishi atroflicha tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, huquqiy kompetensiya, huquqiy salohiyat, huquqiy dunyoqarash, huquqiy tafakkur, huquqiy ong, huquqiy fikr.

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
КЛАССИФИЦИРОВАННОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВЫХ  
КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

*В данной статье на примере дисциплины «Трудовое право» проанализировано использование дифференцированного подхода в формировании правовых компетенций будущих учителей. Подробно рассмотрены вопросы подготовки кадров, обладающих правовым потенциалом, соблюдающих внутреннюю дисциплину, осведомлённых о правовых основах своего карьерного роста, а также способных преодолевать правовой нигилизм.*

**Ключевые слова:** компетенция, правовая компетенция, правовой потенциал, правовое мировоззрение, правовое мышление, правосознание, правовая мысль.

**METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF USING A STAGED APPROACH IN FORMING  
LEGAL COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS**

*This article analyzes the use of a differentiated approach in developing legal competencies of future teachers, using the subject of Labor Law as an example. It comprehensively examines the formation of personnel who possess legal potential, adhere to internal discipline, are aware of the legal basis for career advancement in their work, and are capable of overcoming legal nihilism.*

**Keywords:** competence, legal competence, legal potential, legal worldview, legal thinking, legal consciousness, legal thought.

**Kirish.** Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda davlatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarga nisbatan o‘z nuqtayi nazarini aholiga yetkazib berishdagi samarali vositasi vazifasini o‘taydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishda huquqiy madaniyat, huquqiy ong muammolari bugungi kunda nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki rivojlangan davlatlarning ham diqqat markazidadir. Ular huquqiy savodxonlikni yuksaltirish protsedurasiga alohida e‘tibor berib, yosh avlodning ongiga permanentik ravishda singdirib borilgan va huquqiy pertseptsiv qobiliyatini rivojlantirgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishni Mehnat huquqi misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, huquqiy salohiyatga ega kadr o‘z mehnat faoliyatida yuksalishining huquqiy asosidan xabardor, shuningdek ichki intizomga rioya qiluvchi, ya‘ni huquqiy nigilizmni bartaraf eta oladigan, aksincha huquqiy ideolizmni o‘zida aks ettirgan kadr nazarda tutiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z mehnat faoliyatida rahbari, jamiyat arbobi yoki o‘qituvchi professional faoliyatida yuqori huquqiy professionallik, ijtimoiy munosabatlarda ijobiy kirishuvchanlik qobiliyatiga ega, muayyan professional harakatlarda oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini shakllangan, jamoaviy faoliyatlarida al‘truist(egoist emas) qobiliyati mujassam kadr nazarda tutiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotimizga muvofiq “Mehnat huquqi” fani samaradorligi ta‘minlash sharoitlarini belgilashda didaktikaga oid ilmiy–metodik ishlardan keng foydalandik. O‘zbekiston Respublikasida mehnat qonunchiligida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Yuqori bandlik va kuchli ijtimoiy himoyaga erishish;
2. Aholining ijtimoiy yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash;
3. Ijtimoiy hamjihatlikni himoya qilish.

Hammamizga ma'lumki jamiyatimizda mehnat jamoasi bilan bog'liq bo'lmagan sohaning o'zi mavjud emas. Qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar barcha mehnat qonunchiligi asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Kadrlarning raqobatbardoshligi, huquqiy madaniyati yuksak, o'z vazifasiga mas'uliyat va vijdonan yondashuvchang, o'z sohasining yetuk mutaxassisi albatta oliy ta'lim bilan uzviy bog'liqdir.

“Yuksak huquqiy madaniyat–mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan kontseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, mehnat faoliyatida yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini mehnat jamoasida va kundalik hayotida qo'llay olishlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Farmonining 3, 10-12 bandlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta'minlash mexanizmini joriy etish, shuningdek, talaba va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqilishini ta'minlash bo'yicha, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korruptsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illat ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan o'quv materiallarni tayyorlanishini tashkil etishga ko'rsatmalar berildi.

Bu holatlarni inobatga olib 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-sonli Farmonining 10-bandiga muvofiq kelajakda oliy ta'lim tizimining o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida “Mehnat huquqi” fanini o'qitishni yo'lga qo'yish strategik masqad sifatida gavdalandirilib, harakat qilinmoqda.

**Munozara.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF- 5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Farmondan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi 342-son “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori ni hayotga tadbir etish orqali mamlakatning ijtimoiy-huquqiy sohani rivojlanishida amaliy ahamiyat kasb etadi.[2]

Barcha oliy ta'lim kadrlarining “Mehnat huquqi” fanini o'qitishdan asosiy maqsadi quyidagilar ishlab chiqildi:

- talabalarni O'zbekiston Respublikasi mehnat va bandlik sohasidagi huquqiy siyosiy mohiyatini tushunib yetishlariga ko'maklashish;
- mehnat qonunchiligining asosiy tushunchalari va qoidalari bilan tanishtirish;
- talabalar mehnat huquqi haqida mustahkam bilimlar, barqaror ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- talabalarga fuqarolarning mehnat qilishga bo'lgan huquqi va ushbu huquqni ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolatlari haqida chuqur nazariy bilimlarni berish;
- mehnatga oid huquqiy munosabatlar sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari haqida ma'lumotlar berish;
- mehnat qilishga bo'lgan huquqiy kafolatlarining aniq turlari haqida talabalarda tushuncha hosil qilish;
- mehnat shartnomasini tuzish va uning mazmuni, shartnomani o'zgartirish va bekor qilishda taraflarning huquqlarini ta'minlash;
- mehnat huquqiy kafolatlar va ularning amalga oshirilishi, mehnatni muhofaza qilish, mehnat nizolari va ularni hal etishning huquqiy vositalari haqida yetarli tasavvur hosil qilish;
- mehnat jamoasida huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob axloq normalarini talaba ongiga chuqur singdirib borishdan iborat.

Bakalavriatning barcha ta'lim yo'nalishi 2-3 bosqich talabalarining “Mehnat huquqi” fanini o'zlashtirishi, bo'lajak kadr sifatida yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tarbiyalashga ijobiy ta'sir etadi. Bu o'z navbatida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yuksak salohiyatli, yangicha va mustaqil fikrlaydigan, O'zbekistonning ertangi taqdirini o'z qo'lga olishga qodir yoshlarni tarbiyalash, bu borada innovatsion yondashuvni keng joriy etish malakasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash nazarda tutilmoqda.

“Ta'limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish zarur”. Xalqaro talabalariga monant raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak huquqiy madaniyatli, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, turli ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida duch keladigan

qiyinchiliklarga bardoshli, o‘z-o‘zini boshqara oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalarda o‘qituvchi ham ijodkor, fidoiy, izlanuvchan va motivator vazifasini bajarishi lozim.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarni mehnat munosabatlariga tayyorlashda quyida kasbiy kompetentlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi va malakasi hisoblanadi. Bunda:

- Ijtimoiy kompetentlik – mehnat munosabatlarida ijtimoiy faollikni ko‘rsata olish ko‘nikmasi bo‘lib, kasbiy faoliyatda nafaqat mehnat sub'ektlar, balki barcha shaxslar bilan muloqotga kirisha olish malakasiga aytiladi;

- Maxsus kompetentlik- bu kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish bo‘lib, kasbiy-mutaxassislik vazifalarni oqilona hal qilish, mehnat faoliyati natijalarini to‘g‘ri baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarini izchil rivojlantirib borish, shuningdek kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar mazmunini tashkil etadi:

- 1) psixologik kompetentlik – mehnat munosabatlari jarayonida sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, mehnat jamoasi va mehnat munosabatlari jarayonining boshqa sub'ektlari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish mahorati;

- 2) metodik kompetentlik – mehnat faoliyatini uslubiy jihatdan oqilona tashkil etish, mehnat munosabatlari faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, usul va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, uslublarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash ko‘nikmasi;

- 3) informatsion kompetentlik – axborot-kommunikatsion imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasi bo‘lib, kerakli, asosiy va foydali ma’lumotlarni topish qobiliyati, shuningdek, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

- 4) kreativ kompetentlik – mehnat faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashishdir, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish qobiliyatiga aytiladi.

- Shaxsiy kompetentlik – turli mehnat sohalarida kadrning o‘z-o‘zini shaxs sifatida shakllantirish maqsadida o‘z ustida ishlashi bo‘lib, izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

- Texnologik kompetentlik – kasbiy faoliyatida bilim, ko‘nikma va malakani boyitishga harakat qiladigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish ko‘nikmasidir.

- Ektremal kompetentlik – nafaqat kasbiy faoliyatimizda, balki ijtimoiy turmushimizda favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, mehnat munosabatlarida turli nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.[6]

Huquqiy fanlarni o‘qitishda tabaqalashgan yondashuvdan foydalanishda pedagogik metodik imkoniyatlar ta’lim uslublaridan oqilona foydalanishda ifodalanadi. Bugungi kunda amaliyotda yetmishdan ortiq ta’lim ta’lim uslublari mavjud bo‘lib, ulardan eng mashhurlari quyidagilardir:

- Vizual (fazoviy): bunda “Mehnat huquqi” fanini o‘zlashtirish jarayonida turli mehnat munosabatlariga oid rasmlar, ko‘rgazmalar, prezintatsiya va tasviriy usullardan foydalanish afzalligini ko‘ramiz;

- Aural (eshitish-musiqiy): bunda talabaning individual eshitish qobiliyatining nisbatan yuqoriroq rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ovoz va audio matnlarni o‘zlashtirish moyilligi yuqori bo‘ladi. Mavzuni video va audio darslar shaklida taqdim etish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- Og‘zaki (lingvistik): talaba og‘zaki nutqda ham, yozishda ham, so‘zlardan foydalanishni afzal ko‘radi, “Mehnat huquq” fani mashg‘uloti jarayonida o‘qituvchining og‘zaki nutqi orqali ham o‘zlashtirishi mumkin;

- Jismoniy (kinestetik): bunda talaba ma’lumotni o‘zlashtirishda tana organlarining ishtiroki muhimdir. Masalan, tana, qo‘llar va teginish hissidan foydalanishni afzal ko‘radi, “Mehnat huquqi” fanidan “Mehnat shartnomasi” mavzusini o‘zlashtirishda mehnat qonunchiligi tomonidan namunaviy mehnat shartnomasidan foydalanib, mashg‘ulot jarayonida real mehnat shartnomasini tuzish mashqini bajarish mumkin. Shuningdek, “Mehnat shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish” mavzusini o‘zlashtirishda ham keng foydalanish mumkin;

- Mantiqiy (matematik): bunda talaba mavzuni o‘zlashtirishda mantiq, fikrlash va tizimlardan foydalanishni afzal ko‘radi. “Mehnat huquqi” fanining amaliy mashg‘ulotlarida mavzuga oid turli keys, keys-stadi texnologiyalaridan va muammoli mehnat nizolaridan foydanish mumkin;

- Ijtimoiy (shaxslararo): mashg‘ulotda talaba guruhlariga yoki jamoalarga birlashib o‘zlashtirishni afzal ko‘radi. “Mehnat huquqi” fanining seminar mashg‘ulotlarida guruhni mikro jamoalarga ajratib, ma’lumotlarni kazus shaklida ishlab chiqib o‘zlashtirish mumkin;